

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

6-2025  
IJTIMOIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

## IQTISODIYOT

**F.X.Rahimov, A.Muhammadiyev**

Soha komponentlarining samarali integratsiyasi – innovatsion rivojlanish garovi ..... 8

**Sh.Nishonova**

Investitsiya loyihalarini boshqarish jarayonining bosqichlari va investitsiya jozibadorligini baholash mexanizmlari ..... 16

**Z.M.Tojiboyev**

Yashil moliya va O'zbekistonda barqaror rivojlanish: rivojlanayotgan bozorlerde ESG va yashil obligatsiyalarning roli..... 21

## FALSAFA

**Sh.T.Tursunkulova**

Estetika tarixida go'zallik tushunchasi ..... 25

**S.S.Jabborova**

Yangi O'zbekistondagi ma'naviy islohotlar ijtimoiy taraqqiyot omili sifatida..... 32

**M.O'rinov**

Yangi O'zbekiston tasviriy san'atida avlodlar almashinuvi fenomeni va madaniy transformatsiyalar dialektikasi ..... 35

**D.N.Tag'oyeva**

Oila, nikoh masalalarining genezisi va jadidlar ma'naviy merosida mazkur masalalarning aks etishi..... 39

**A.A.Mirzayev**

Ibn al-Arabiyning komil inson haqidagi qarashlari..... 49

**M.R.Tuxtasinov**

Demokratik jamiyatda siyosiy tafakkurni rivojlantirish muammolari..... 54

**G.M.Ruzmatova**

Ibn Sino va Erix Fromm: ijtimoiy faollikka oid falsafiy g'oyalarining qiyosiy-tahlili..... 58

**J.B.Anarbayev**

Yangi O'zbekiston sharoitida inson manfaatlarini ta'minlashda institutsional hamkorlikning roli..... 62

**N.A.Umirzakova**

Tibbiy ta'limga bioetikaviy imperativlarni joriy etish - zamonaviy tibbiyotni optimallashtirishning usuli sifatida ..... 66

**M.R.Sodiqova**

Inson qadrini ta'minlashda demokratik qadriyatlarining o'rni ..... 70

**I.T.Boltaboyev**

Ijtimoiy adolatning falsafiy talqini: tarixiy va zamonaviy yondashuvlar ..... 74

**S.R.Bo'ldiyeva**

Buxoro hunarmandlarining e'tiqodi va ularning hayotdagi falsafiy qarashlari ..... 79

**M.X.Baratova**

Kambag'allik muammosining ijtimoiy-falsafiy talqini va uni o'rganishning metodologik asoslari ..... 84

**B.Tadjixodjayev**

Davlat boshqaruvida xarizmatik shaxslar faoliyatining sotsiologik tahlili ..... 89

**A.B.G'ulomov**

Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishning ma'naviy-ma'rifiy tamoyillari va strategik asoslari ..... 93

**M.R.Sodiqova**

Yoshlarning mafkuraviy immunitetini shakllantirishda ijtimoiy-falsafiy omillar ..... 97

**D.V.Vohidova**

Xojagon tariqati va ma'rifatli jamiyatning ruhiy-ma'naviy asoslari ..... 101

**A.B.G'ulomov**

Yangi O'zbekiston va fuqorolik jamiyati qurishda Farg'ona jadidchilik maktab namoyondalari ijtimoiy-falsafiy qarashlarining ahamiyati ..... 105



UO‘K: 316.46:35

**DAVLAT BOSHQARUVIDA XARIZMATIK SHAXSLAR FAOLIYATINING SOTSIOLOGIK TAHLILI****СОЦИОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ХАРИЗМАТИЧНЫХ ЛИЧНОСТЕЙ В ГОСУДАРСТВЕННОМ УПРАВЛЕНИИ****SOCIOLOGICAL ANALYSIS OF THE ACTIVITIES OF CHARISMATIC PERSONALITIES IN PUBLIC ADMINISTRATION****Botir Tadjixodjayev**

O‘zbekiston milliy universiteti “Sotsiologiya” kafedrasida mustaqil izlanuvchisi

**Annotatsiya**

Mazkur maqolada davlat boshqaruvida xarizmatik shaxslar faoliyatining ba’zi jihatlarini, liderlar xarezmasi, ularning shaxsiy sifatlarini haqida so‘z boradi. Siyosiy yo‘lboshchilarning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni va mazkur haqida taniqli sotsiologlarning o‘rganishlari tahlil qilingan.

**Аннотация**

В данной статье рассматриваются некоторые аспекты деятельности политических личностей в государственном управлении, харизматичность лидеров и их качества. Анализируется роль политических лидеров в развитии общества и исследования известных социологов по этому направлению.

**Abstract**

This article examines some aspects of the activities of political figures in public administration, the charisma of leaders and their qualities. The role of political leaders in the development of society and the research of famous sociologists in this area are analyzed.

**Kalit so‘zlar:** lider xarizmasi, yo‘lboshchilik tushunchasi, liderlik sifatlarini nazariyalari, xarizmatik yo‘lboshchilik modellari, xarizmatik yo‘lboshchilikning sotsiologik tahlili, tarixda shaxsning o‘rni.

**Ключевые слова:** харизма лидера, концепция лидерства, теория лидерских качеств, модели харизматического лидерства, место и роль исторических личностей в истории.

**Key words:** leader charisma, leadership concept, theory of leadership qualities, models of charismatic leadership, place and role of historical figures in history.

**KIRISH**

Bugungi kunga kelib siyosiy yo‘lboshchilarning zamonaviy siyosiy jarayonlardagi faoliyatida ularning shaxsiy sifatlarining o‘rni muhimdir. Bunda asosan liderning xarizmasi alohida o‘rin tutadi. Siyosiy yo‘lboshchilar jamiyat hayotidagi ijtimoiy va siyosiy vaziyatlarga radikal ta’sir ko‘rsata oladilar.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Bunda yo‘lboshchining xarizmatik obrazi uning qaysi maqsadni o‘z oldiga qo‘yganligiga bog‘liq. Shu boisdan ham siyosiy yo‘lboshchining boshqaruv faoliyati jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta’sir etishi uchun ham xarizmatik shaxslar faoliyatining sotsiologik tahlili dolzarbdir. Bu borada hozirga qadar taniqli sotsiolog olimlar G.K.Ashin, J.Blondel, M.Veber, D.N.Zapolskiy, A.I.Kravchenko, P.Sorokin, R.Taker va boshqalar umumsotsiologik va falsafiy yondashuv orqali xarizmatik yo‘lboshchilik tushunchasini ilmiy asoslab berganlar. N.K.Mixaylovskiy, G.Tard, N.S.Pishulin kabi olimlar xarizmatik yo‘lboshchi fenomeni doirasida o‘z tadqiqotlarini olib borganlar. Ayniqsa, M.Veberning xarizmatik yo‘lboshchilarning davlat boshqaruvidagi faoliyatini sotsiologik tahlillari mazkur masalani ilmiy asosda ochib berishda alohida ahamiyatga ega.

O‘tgan asr intihosida xorijda, xususan sovet jamiyatlaridan tashqarida R.Takerning xareзма va liderlik masalalaridagi sotsiologik tadqiqotlari ko‘pchilikda qiziqish uyg‘otgan.

Dunyo miqyosida boshqaruvni takomillashtirish masalasi siyosatshunoslikda ham dolzarb mavzulardan hisoblanadi. Bundan kutiladigan asosiy maqsad esa rahbarlarni yangi muhit sharoitiga tayyorlash, ayniqsa yosh rahbar kadrlarda siyosiy kompetentlikni shakllantirishdan iborat. Qolaversa

bugunga qadar siyosiy kompetentlik tarixida davlat boshqaruvidagi shaxslar faoliyatining ahamiyati ham ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan. Xususan bugungi kungacha liderlik to'g'risida quyidagi nazariyalar mavjud:

1. "liderlik sifatleri nazariyasi"
2. "liderlikning vaziyatga bog'liqligi nazariyasi"
3. "liderlikning sintetik nazariyasi".

### NATIJA VA MUHOKAMA

Birinchi nazariya - "liderlik sifatleri nazariyasi" si haqida AQSH da K.Berd o'tgan asrning o'rtalarida tadqiqotlar olib borib, liderlik sifatleri borasida 79 ta sifatni ro'yxatini tuzgan. Mazkur ro'yxatda liderlik qirralarini ifoda etuvchi muloqatga tez kirishib keta olish, tashabbuskorlik, o'ziga ishonch va boshqalarni ham ishontira olish qobiliyati, tez va samarali natijalar bera oladigan qarorlar qabul qila olish, tashkilotchilik va yetakchilik kabi sifatlar keltirilgan, biroq bu kabi sifatlarining qanday namoyon bo'lishi va shakllanishini tushuntirib bera olmagan. Ikkinchi nazariya - "liderlikning vaziyatga bog'liqligi nazariyasi"sida esa "lider bu - vaziyatning mahsuli" g'oyasiga tayaniladi. Unda har bir odamda liderlik sifatleri mavjud, ammo ayrim vaziyatlar ayrim shaxslarni o'zlarini ko'rsatishlari uchun qulay bo'lishi mumkinligiga asoslaniladi. Uchinchi nazariya - "liderlikning sintetik nazariyasi"si esa yuqoridagi nazariyalar asosida paydo bo'lgan bo'lib unda liderni bevosita guruhiiy munosabatlarning bevosita mahsuli sifatida biladi, ya'ni liderning tanilishida guruhning o'rni birlamchi ekanligiga suyanadi. Liderlik – davlat va jamiyat boshqaruvida shaxsning shaxsiy salohiyati, jozibasi va ta'sirchanligi asosida vujudga keluvchi yetakchilik modeli. U davlat va jamiyat rivojlanishiga jiddiy ta'sir o'tkazadi. Ayniqsa xarizmatik yo'lboshchilik – liderlik maqomida alohida ahamiyatli ijtimoiy holat hisoblanadi. Bu haqida taniqli sotsiologi Maks Veberning tadqiqotlariga to'xtalib o'tish o'rinlidir. Uning ta'riflashicha, xarizmatik liderlik ratsional-huquqiy va an'anaviy boshqaruv shakllaridan farq qilib, irratsional ishonch va kuchli shaxsiyatga asoslanadi. Hozirgi dunyoda xarizmatik liderlikning ijtimoiy jarayonlarga ta'siri ko'plab sotsiologik tadqiqotlarda o'rganilgan. Uning davlat boshqaruvi va jamiyatga ta'sirini tushunish uchun sotsiologik tahlil muhim ahamiyat kasb etadi. Xarizmatik liderlik – bu jamiyatda etakchilikning eng ta'sirchan shakllaridan biri bo'lib, davlat boshqaruvi, siyosat va ijtimoiy jarayonlarda muhim rol o'ynaydi. Maks Veber ta'rificha, xarizmatik etakchi shaxsiy iste'dodi va jozibasi bilan odamlarni ishontira oladi va ularni o'z g'oyalari atrofida jipslashtiradi. Xarizmatik liderlik tarixda ko'plab inqilobiy o'zgarishlarga, ijtimoiy harakatlarga va davlat boshqaruvi transformatsiyasiga sabab bo'lgan. Xarizmatik liderlikning nazariy asoslari va etakchiligi haqida Maks Veber o'z konsepsiyasini ilgari surgan, uning fikricha, xarizmatik liderlik quyidagi xususiyatlarga ega:

- lider shaxs sifatida favqulodda qobiliyatga ega deb hisoblanadi, shuningdek, lider shaxsan ulug'vor, maftunkor va g'ayrioddiy salohiyatga ega deb qabul qilinadi.
- xarizmatik lider ko'pincha inqiroz yoki tub o'zgarishlar talab qilinadigan vaziyatlarda paydo bo'ladi. ommaviy ishonch va irratsional hurmat unga kuchli qo'llab-quvvatlashni ta'minlaydi.
- u an'anaviy yoki huquqiy tizimdan ustun turadi va mavjud boshqaruvni o'zgartirishga harakat qiladi.
- unga ergashuvchilar uning har bir qarori va so'zini oliy haqiqat deb qabul qiladi.
- boshqaruv tizimi an'anaviy yoki huquqiy emas, balki etakchining shaxsiy tajribasi va qadriyatlari asosida yo'naltiriladi.
- Shuningdek hozirga qadar olib borilgan tadqiqotlarda xarizmatik liderlikning to'rtta modeli o'rganilgan. Ularga quyidagilarni kiritish mumkin:
  - Inqilobiy xarizma – Jamiyatni tubdan o'zgartirishni maqsad qilgan liderlar (masalan, Fidel Kastro, V.I.Lenin).
  - Islohotchi xarizma – Mamlakatni rivojlantirish uchun islohotlar o'tkazadigan etakchilar (Mustafo Kamol Otaturk, Franklin Ruzvelt).
  - Populistik xarizma – Jamoatchilikning ehtiroslarini uyg'otib, ommaviy qo'llab-quvvatlashga erishadigan etakchilar (Gugo Chaves, Donald Tramp).
  - Totalitar xarizma – Xarizmatik etakchilik shaxsga sig'inish va to'liq hokimiyat bilan birlashadi (Gitler, Stalin).
  - Siyosatshunoslik nazariyalari va tarixdan ma'lumki, xarizmatik liderlikning davlat boshqaruvida ta'siri beqiyos. Xarizmatik etakchilar ko'pincha mavjud davlat institutlarini zaiflashtiradi yoki qayta shakllantiradi. Bunda xarizmatik yo'lboshchining davlat instituti bilan birga quyidagi jarayonlarga ta'sir qiladi:

## FALSAFA

- Siyosiy markazlashuv – barcha qarorlar yetakchi atrofida jamlanadi.
- Byurokratiya va mutaxassislar rolining pasayishi – xarizmatik yetakchilar ko'pincha shaxsiy qarashlarga tayanib, mutaxassislarning fikrini kam hisobga oladilar.
- qonun ustuvorligining zaiflashuvi – lider shaxsiyati hukumat tizimidagi asosiy qoidaga aylanadi. Shuningdek, jamiyat va xarizmatik etakchi jamiyat hayotida o'z faoliyatini olib borishida ushbu keltirilgan jihatlar kuzatilgan. Bular:
  - ijtimoiy safarbarlik - bunda jamiyat xarizmatik yetakchi ortidan jipslashadi, boshqaruvda siyosiy markazlashuv kuchaytiriladi, barcha qarorlar xarizmatik etakchi tomonidan qabul qilinadi va hukumat tizimi uning shaxsiy g'oyalari bog'liq bo'lib qoladi.
  - tanqidiy fikrlashning susayishi – bunda hukumat va jamoatchilik liderni ideallashtirish tendensiyasiga tushadi, bu qonun ustuvorligining zaiflashuvi hamda lider shaxsiyati davlatning asosiy belgisiga aylanishiga olib keladi, huquqiy normalar esa ikkinchi darajali ahamiyatga ega bo'ladi.
  - ommaviy manipulyatsiya - axborot vositalari va populistik chiqishlar orqali jamoat fikrini yo'naltirish faoliyati olib boriladi. Axborot vositalari orqali liderning imiji kuchaytiriladi, populistik strategiyalar qo'llaniladi.
  - Iqtisodiyotda ham xarizmatik liderlik quydagicha faoliyatlarda namoyon bo'ladi. Ko'plab xarizmatik yetakchilar iqtisodiy islohotlar olib borganlar, masalan, Otaturk Turkiyani modernizatsiya qildi. Biroq, ba'zan xarizmatik yetakchilar populistik siyosat tufayli iqtisodiy inqirozlarga sabab bo'lishi mumkin (masalan, Venesuelada Gugo Chaves siyosati).

Bugungi kunda boshqaruv sotsiologiyasida xarizmatik yetakchining ta'sirini baholash uchun turli sotsiologik metodlar qo'llaniladi. Masalan 1. **Kontent tahlil** – mazkur tahlilda OAVda xarizmatik yetakchiga nisbatan bildirilgan fikrlar, maqolalar va nutqlarni o'rganiladi, hamda liderning ommaviy nutqlari va ijtimoiy tarmoqlardagi faoliyati tahlil qilinadi. 2. **Ijtimoiy so'rovlar metodi** – bu metodda jamoatchilikning yetakchiga bo'lgan ishonchi va uning siyosatiga munosabati aniqlanadi va liderning xarizmatik xususiyatlari jamiyat tomonidan qanday qabul qilinishi o'rganiladi. 3. **Tarixiy-komparativ tahlil** metodida esa turli davlatlardagi xarizmatik yetakchilarni solishtirish orqali ularning ta'sir mexanizmini tahlil qilish mumkin.

**4. Tarixiy keys tahlili metodi** – bu metodda ayrim xarizmatik yetakchilarning faoliyati chuqur o'rganiladi. Masalan, Jon Kennedi, Nelson Mandela yoki Li Kuan YU singari liderlar boshqaruv faoliyati va hayoti.

Davlat boshqaruvida da xarizmatik yo'lboshchilarning faoliyatini sotsiologik tahlil qilishda xarizmatik liderlikning institutsionalizatsiya jarayoni ham o'rganilishi lozim. Bunda asosan institutsionalizatsiya va liderlikning transformatsiyasiga e'tibor qaratishi lozim bo'ladi. Qolaversa, yaxshi ma'lumki, hayotda xarizmatik yetakchilik doimiy saqlanib qolmaydi. U turli yo'llar bilan o'zgarishi mumkin. Masalan, institutsionalizatsiya jarayonida shu jihat kuzatiladiki, xarizmatik etakchilik rasmiy qonunlar va davlat mexanizmlariga singdiriladi. Yana bir bu boradagi jihat - byurokratizatsiya – liderning g'oyalari davlat apparati orqali amalga oshiriladi va shaxsiy liderlik rolini yo'qotadi. Shuningdek, bu yo'nalishda liderning nufuz yo'qotishi holatlarini ham kuzatish mumkin. Bu avvalo yangi davrda xarizmatik yetakchining ta'sirining pasayishi va yangi yetakchi paydo bo'lishi bilan oxiriga etishi mumkin.

Jahon tarixidan xarizmatik liderlar haqida ko'plab misollar keltirish mumkin. Masalan, Fransiya lider sifatida alohida nom qoldirgan va o'z zamonasida xarizmatik yo'lboshchi darajasiga chiqqan shaxs sifatida Napoleon Bonapartni bilishadi. N. Bonapart Fransiya inqilobiy xarizma yo'lboshchisi sifatida tanilgan. Turkiya taraqqiyotida Mustafo Kamol Otaturk boshlagan islohatchilik xarizmasining alohida ahamiyati bor. M. Kamol Otaturk Turkiya ravnaqiga xizmat qiluvchi juda ko'plab islohatlarni amalga oshirdi. Mustafo Kamol ayollarni erkinlikka chiqishlarini har tomonlama qo'llab quvvatlagan. Ayollarga birinchi jahon urushi paytidayoq moliya fakultetlarida o'qishga ruxsat berildi. Keyinchalik Turkiyadagi gumanitar fakultetlarda ham xotin – qizlarning tahsil olishlariga ruxsat berildi. Yo'lboshchi sifatida K. Otaturk o'z nutqlaridan birida ayollar chodirasi haqida gapirgan. “U jazirama issiq paytida ayol kishini juda qiynab yuboradi, - degan edi u. – Erkaklar - bu bizning xudbinligimiz tufayli sodir bo'layapti. Unutmaylikki, ayollarda ham erkaklardagi kabi ma'naviy huquqlar bor”. Prezident sifatida u “sivilizatsiyalashgan xalqning onalari va opa – singillari “ o'zlarini unga mos ravishda tutishlari kerak, “ayollarning yuzlarini yashirish odati bizni kulgili qilib qo'yadi”, deb hisoblar edi. K. Otaturk ayollar erkinligi darajasini G'arbiy Yevropa darajasiga etkazishga qaror

qilgan edi. Uning davlat boshqaruvi davrida ayollar ovoz berish, shuningdek, munitsepalitetlarga va partiyalarga saylanish huquqini oldilar.

Germaniya tarixida esa Adolf Gitler o'tgan asrning 30 – yillarida totalitar xarizma yo'li bilan boshqargan yo'lboshchi sifatida tanilgan. Aynan uning mazkur xarizmasi keyinchalik butun dunyo xalqlari taqdirida regressiv oqibatlarga olib kelgan.

A.Gitler natsistlar partiyasining va Germaniyaning rahbari sifatida 1933 – 1945 yillarda Uchinchi reyxning dohiysi va kansleri sifatida o'z zolimligining hukmron tartibini yaratdi. O'z tasavvurini nemis xalqining zaruriyatiga o'xshatib, misli ko'rilmagan muvaffaqiyatga erishdi, Germaniyaning qayta qurollantirdi, Yevropa tuzilishini sezilarli darajada vayron qildi, ikkinchi jahon urushini boshlab Yevropa sivilizatsiyasini halokat yoqasiga olib kelib qo'ydi. U hokimiyatga chiqish yo'lida ham, o'zi hukmronlik qilgan vaqtlarda ham yolg'ondan, terrordan va o'ta shafqatsizlikdan foydalandi, ammo buning barchasi uni halokatdan saqlab qola olmadi. Butun dunyoning nazarida Gitler iblisning timsoli bo'lib qoldi. Undan qolgan meros – butun dunyo sivilizatsiyasi tarixidagi eng dahshatli, zolimona hukmronlikdan qolgan xotira. Bu xotira dunyoda barcha xalqlarga diktatorlik va zolimona boshqarishning mudhish oqibatlarini ham eslatib turadi. O'z davrida A.Gitler "Boshqaruvda keng ommani aldash uchun kichik emas, katta yolg'on kerak.... Men shunday yoshlarni o'stiramanki, butun dunyo dahshatga tushadi"

Yo'lboshchilikning ratsional – huquqiy xarizmasini o'z faoliyatida qo'llash orqali o'z Vatanining rivojida munosib ulushi bor inson bu Singapurning sobiq bosh vaziri Li Ku Y. hisoblanadi.

MDH mamlakatlari ichida xarizmatik yetakchilikda Rossiya prezidenti Vladimir Putin xarizmatik va ratsional-huquqiy liderlik elementlarini o'zida mujassam etgan lider sifatida tanilgan. O'z navbatida mamlakatimizda mustaqillikka erishilgandan so'ng xarizmatik liderlik davlat qurilishida muhim rol o'ynagan.

### XULOSA

Xarizmatik liderlik jamiyat va davlat boshqaruvida muhim omildir. U jamiyatni birlashtirishi, siyosiy islohotlarni amalga oshirishi mumkin, ammo shaxsga sig'inish, avtokratiya va manipulyatsiya xatarlarini ham olib kelishi mumkin. Shuning uchun xarizmatik etakchilik demokratik institutlar va qonun ustuvorligi bilan muvozanatlanishi lozim. Shuning uchun ham bunday vaziyatlarni bartaraf etish uchun huquqiy cheklovlar qo'llanilishi mumkin.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ашин Г.К. Критика современных буржуазных концепций лидерства-Москва, "Мысль" 2008, - стр 136,
2. Блондель Ж. Политическое лидерство путь к всеобъемлющему анализу – Москва, 1992, стр 135,
3. Вебер М.Социология религии. Образ общество . пер.с нем. М.И.Левина и др, - Москва, изд."Юристь", 1992, стр.280,
4. Кравченко В.И. Власть и коммуникации, СПб, изд. С- Петербургского ун.экон.и фин. , 2003, - 271 стр.
5. Эргашев Ш., Бобоматов Т., "XX аср: тақдирларда акс этган тарих"-Тошкент.; Ўзбекистон, 2012, 135 - бет